

## **NOTO'LIQ OILALARDA OILAVIY PSIXOLOGIK MUHITNI O'RGANISHNATI JALARI**

**Babajanova Feruza Aminboyevna**

*Xalqaro Nordik Universiteti magistranti*

*Ilmiy rahbar: psix.f.n., dots.*

**N. Lutfullayeva**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi. Noto'liq oila tushunchasi, uning turlari va sabablari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning psixologik holati, ijtimoiy moslashuvi, ta'limga muvaffaqiyati va shaxsiy sifatlariga ta'sir etuvchi omillar, jumladan, ota-onalar yo'qligi, moddiy qiyinchiliklar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi va boshqa omillar ko'rib chiqiladi. Maqola yakunida noto'liq oilalardagi o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** noto'liq oila, o'quvchilar, shaxsiy rivojlanish, psixologik holat, ijtimoiy moslashuv, ta'limga muvaffaqiyati, ota-onalar yo'qligi, moddiy qiyinchiliklar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

**Аннотация:** В данной статье исследуются факторы, влияющие на личностное развитие учащихся, воспитывающихся в неполных семьях. Анализируется понятие неполной семьи, ее типы и причины. Также рассматриваются факторы, влияющие на психологическое состояние учащихся, их социальную адаптацию, успеваемость и личностные качества, включая отсутствие одного из родителей, материальные трудности, недостаток социальной поддержки и другие факторы. В заключение статьи даются практические рекомендации по поддержке личностного развития учащихся из неполных семей.

**Ключевые слова:** неполная семья, учащиеся, личностное развитие, психологическое состояние, социальная адаптация, успеваемость, отсутствие родителя, материальные трудности, социальная поддержка.

**Abstract:** This article explores the factors influencing the personal development of students raised in single-parent families. The concept of a single-parent family, its types, and causes are analyzed. It also examines the factors affecting students' psychological state, social adaptation, academic achievement, and personal qualities, including the absence of a parent, financial difficulties, lack of social support, and other factors. In conclusion, the article provides practical recommendations for supporting the personal development of students from single-parent families.

**Keywords:** single-parent family, students, personal development, psychological state, social adaptation, academic achievement, parental absence, financial difficulties, social support.

**Kirish.** Oilaviy muammolar o‘zining ko‘p qirraliligi bilan alohida xususiyat kasb etib, jamiyat taraqqiyotini belgilashda, ma’nan barkamol, ruhan sog‘lom avlodni voyaga yetkazish jarayonida ularning ijobiy yechimi katta ahamiyatga ega. Agar har bir oilaning a’zolari o‘z muammolarini hamjihatlik bilan, o‘zaro kelishuv asosida hal qilsalar, oiladagi tinchlik kafolatlanib, uning ma’naviy asoslari mustahkamlanadi. Oilada er-xotin, qaynonaqaynota, kelin-kuyov munosabatlarida, fikrlar va qarashlardagi paydo bo‘ladigan ayrim kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni uni tashkil etuvchi shaxslar o‘zaro kelishib, muammoni konstruktiv tarzda yechishga qodir bo‘lsalar, oiladagi ijtimoiy-psixologik hamda ma’naviy muhit yosh avlod ongida insoniy munosabatlar to‘g‘risida ijobiy tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi. Shu sababdan mamlakatimizda oila va uning tarbiyaviy imkoniyatlari milliy qadriyat sifatida e’tirof etiladi<sup>1</sup>. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev oilada hukmron bo‘lishi lozim bo‘lgan ma’naviy muhit va noyob udumlarimizning xususiyatlari haqida fikr bildirib: “Bunda o‘zaro hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, oilaning barcha a’zolari o‘z burchlarini ado etmasa, bir-birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr oqibat ko‘rsatmasa yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas... O‘zbeklarning aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilasining

---

<sup>1</sup> Temirov A. Muammoli oilalarga psixologik xizmatni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlar. Международный научный журнал № 1(100), часть 1 «Научный Фокус» май, 2023. 1176-1180 bb.

qarindosh- urug‘lari va yaqin odamlarning, qo‘snilarning omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliv darajada ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”, deb ta’kidlaganlar.

Noto‘liq oilalar jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, ularda tarbiyalanayotgan o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu o‘quvchilarning psixologik holati, ijtimoiy moslashuvi va ta’limdagi muvaffaqiyati ko‘plab omillar ta’sirida shakllanadi. Ota-oni yo‘qligi, moddiy qiyinchiliklar, ijtimoiy qo’llab-quvvatlashning yetishmasligi kabi omillar ularning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun, ushbu o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo’llab-quvvatlash jamiyatimiz uchun muhim vazifalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo’llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan ijtimoiy himoya tashqil kilingan bo‘lib bunga namuna tariqasida: “Temir daftari”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” orqali moddiy yordam ko‘rsatishni aytishimiz mumkun. Va o‘z navbatida ta’lim sohasida ham katta imkoniyotlar berilgan: Bepul ta’lim, stipendiyalar va grantlar ajratish. Kasbhunar ta’limi markazlarida bepul o‘qitish. Yoshlarni IT sohasiga qiziqishlarini oshirish maqsadida IT markazlari tashkil etildi.

**Psixologik qo’llab-quvvatlash:** Psixologik markazlar va ishonch telefonlari orqali yordam ko‘rsatish. Maktablarda psixologlar faoliyatini kuchaytirish.

**Asosiy qism.** Magistratura mutaxassisligi ikkinchi bosqich talabalarining stajirovkaini to‘g‘ri tashkil qilish bo‘lajak yosh mutaxassislarni real ishlab chiqarish sharoitlariga, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan o‘z bilim ko‘nikma va malakalarimni amalyotda qo’llash va ilmiy - pedagogik faloliyatimga tayyorgarlik ko‘rish, uni amalga oshirish, o‘quv - metodik ishlarni tahlil qilish, natijalarni baholash bo‘yicha ilmiy- amaliy ishlar olib borish maqsadida Toshkent shahar Sergeli tumani 266-sonli umumiy o‘rtta ta’lim maktabi stajirovka olib borildi. Stajirovkada noto‘liq oilalarda tarbiyalanayotgan o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganildi va buni anqilash uchun

V.V.Boykoning “Oilaviy psixologik muhitni baholash metodikasi boyicha 30 savollardan iborat bo‘lgan so‘rovnama otkazildi.

Tadqiqot davomida V.V.Boyko tomonidan ishlab chiqilgan “Oilaviy psixologik muhit”ni baholash so‘rovnomasi asosida 70 nafar o‘quvchining oilaviy muhiti o‘rganildi. So‘rovnama natijalari asosida olingan ballar 60–89 va 90–119 oraliqlariga to‘g‘ri keldi. Eng past (30–59) va eng yuqori (120–150) ball oralig‘ida o‘quvchilar qayd etilmadi. Ushbu natijalar asosida quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish mumkin:

O‘rta darajadagi muammoli muhit keng tarqalgan (44.3%) 60–89 ball to‘plagan 31 nafar o‘quvchi oilaviy muhitda hissiy qo‘llab-quvvatning yetishmasligi, befarqlik yoki e’tiborsizlik mavjudligini ko‘rsatdi. Bu holat bolaning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, moslashuvda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shoshilinch psixologik aralashuv bo‘lmasa-da, ijtimoiy-psixologik yordam va ota-onalar bilan ish olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Qoniqarli, ammo barqaror bo‘lmagan muhit (55.7%) 90–119 ball to‘plagan 39 nafar o‘quvchi qoniqarli, lekin ideal bo‘lmagan oilaviy sharoitda ulg‘ayayotganini ko‘rsatdi. Bunday bolalar ijtimoiy jihatdan moslashgan, lekin doimiy hissiy rag‘bat va e’tiborni talab qiladi. Bu holatdagi oilalar bilan muntazam psixologik suhbatlar, tarbiya bo‘yicha maslahatlar orqali yanada barqaror ijobiy muhitga erishish mumkin.

Ekstremal darajadagi muhitlar qayd etilmagan (0%) 30–59 yoki 120–150 ball oralig‘idagi o‘quvchilarning yo‘qligi bu guruhdagi bolalar tadqiqotga jalb qilinmagan bo‘lishi, yoki mavjud muhitlar o‘rtacha va normal darajada ekanligini bildiradi. Shu bilan birga, ideal psixologik muhitda ulg‘ayayotgan o‘quvchilarning yo‘qligi bu muhitning yetishmovchilagini anglatadi, bu esa oilaviy madaniyat, tarbiya uslubi va hissiy muloqotga bog‘liq.

Oilaga psixologik xizmatni tashkil etish konkret oila muammosining konkret vaziyatga bog‘liqligi bilan belgilanadi. Qo‘llaniladigan har qanday usul psixologning kasbiy mahorati, muolajani qo‘llash shart-sharoitlariga bog‘liq bo‘lib, vaqtli qimmatga egadir. Shuning uchun ham oilaviy munosabatlarning psixokorreksion dasturini aniq tuzish kerak. Oilaga psixologik xizmatni tashkil etish algoritmi quyidagilar:

- psixodinamik;
- sistemalik va strategik;
- ekletik;

Psixodinamik yo‘nalish. Ushbu yondashuv uchun oiladagi katta yoshli a’zolarining o‘tmish tarixini jumladan, ular ontogenezning ilk bosqichlarida boshdan kechirgan, anglanmagan xohish-istiklari, psixologik muammo va o‘zaro proyeksiyalarni tahliliga e’tiborning qaratilishi bilan ahamiyatlidir. Bunda ayrim oila a’zolarining o‘tmishidagi yechimini topmagan muammolari bois, hayotga adaptatsiyasida dekonstruktiv usullarining paydo bo‘lganligini anglashi – insaytga erishishga katta o‘rin beriladi. Ushbu metodning qo‘llanilishi nafaqat psixologdan balki, oilaning barcha a’zolaridan sabr-toqatlilik bilan ko‘p vaqt ni talab qiladi, bu iqtisodiy jihatdan unchalik maqsadga muvofiq bo‘lmasa-da, ammo juda samaralidir. Sistemali va strategik yo‘nalish. Sistemali yondashuvdagi ushbu ish bir tomondan tarbiya tipi, o‘zaro harakatlarning xarakteri, muomala maromiga asoslangan shaxslararo munosabatlar va o‘zaro determinatsiyalashgan shaxs to‘g‘risidagi yondashuv, boshqa tomondan esa oila a’zolarining individual xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan gomeostatik sikl tarzida yopiq holda tashkil etiladi. Ichki oilaviy o‘zaro harakatlarning mustaqil birikmasida turli subsistemalarni ajratish orqali oilaga yaxliq tizim sifatida qaraladi. Oila subsistemalari avlodajdod, jins, qiziqishlar, er-xotin, ota-ona, bola-bola, bola-ona, bola-ota, bolalar uy hayvonlari va boshqa omillarni o‘z ichiga oladi. Bir individning o‘zi bir necha oilaviy subsistemaga tegishli bo‘lishi mumkin. Sistemali yondashuvga asoslangan psixologik korreksiyani amalga oshirish bir nechta bosqichlardan iborat. Oilaviy diagoz deyilganda, oila a’zolarining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda oilaviy munosabatlar buzilishini tiplashtirish tushuniladi. Oilaviy diagnostika muolajasining xususiyati to‘ppa-to‘g‘ri va streoskopik xarakterga ega. Agar korreksion ishning barcha bosqichlarida diagnostika qo‘llanilsa, bevosita muolaja deyiladi. Streoskopik oilaviy diagnostika deb, oila a’zolaridan olingan axborotlarni to‘ldirish va qiyoslash maqsadida oilaning bir a’zosidan olingan ma’lumotlar bilan o‘zaro uyg‘unlashtirishga aytiladi.

Nizo ishtirokchilarining har biri bilan ularning emotsiyal ta'sirlanishiga ko'ra, oilaviy ziddiyatlarning ildizlarini aniqlash va ularni klassifikatsiyalash oilaviy ziddiyatlarni bartaraf etish bosqichida amalga oshiriladi. Oilaning dolzarb muammolari muhokamasini yo individual yoki yaqin qarindoshlaridan biri, yoinki guruhiy tarzda tashkil etilishi oilaviy munosabatlarning rekonstruksiyasi bosqichida olib boriladi. Quvvatlovchi (qayd qiluvchi) bosqichda rolli xulq-atvor repertuarini kengaytiruvchi va empatik muomala ko'nikmalarini mustahkamlash real hayotning tabiiy oilaviy sharoitlarida tashkil etiladi. Oila bilan korreksion ishlarni tashkil etish va uni amalga oshirish bir qator omillar bilan belgilanadi. Oilaviy psixokorreksiyaning eng optimal usuli bu – oila a'zolarining individual xususiyatlariga asoslanishdir. Ko'plab psixologlar o'zlarining amaliy faoliyatlarida psixokorreksion usullarni tanlashda o'z tajribalariga, ilmiy yetuklik va shaxslilik xususiyatlariga ko'ra, ish yuritishga harakat qiladilar. Afsuski, bu har doim ham o'zini oqlamaydi. Zero, har qanday usul (texnika) o'z quroliga ega. Qurolning qimmati uning qanday qo'llanilishi va aynan kim (qaysi mutaxassis) qo'llashiga bevosita bog'liqdir

**Xulosa.** Olib borilgan stajirovka davomida noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish maqsadida V.V.Boykoning "Oilaviy psixologik muhitni baholash metodikasi" bo'yicha o'tkazilgan so'rovnama natijalari shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan 70 nafar o'quvchining 31 nafarida (44,3%) emotsiyal qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi, ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar kuzatilgan va ular psixologik yordamga muhtoj. Qolgan 39 nafar (55,7%) o'quvchida esa oilaviy muhit nisbatan qoniqarli bo'lsada, ularning ham doimiy hissiy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoji borligi aniqlandi. Ushbu natijalar maktab psixologlari, pedagoglar va ota-onalar tomonidan noto'liq oilalardagi o'quvchilarga ko'proq e'tibor qaratish, ularning psixologik holatini yaxshilash va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish muhimligini ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Oila psixologiyasi: Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘l. / G.B. Shoumarov, I.O. Haydarov, N.A. Sog‘inov va boshq.; G‘.B. Shoumarovning tahriri ostida; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi.— T.: «Sharq», 2013. — 296 b.
2. Z.T.Nishanova, Sh.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymanov “Psixologik xizmat” darslik, Toshkent – 2014.
3. D.Arapbaeva, N.Kurbanova, N.Toshpolotova «Oilaviy munosabatlар psixologiyasining nazariy va amaliy masalalari» metodik qo’llanma Toshkent-2019
4. Yadgarova G.T. Noto`liq oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Dis.psixologiya fanlari sifatidagi. 19.00.05. – T.: 2004 yil
5. Djalolovich, R. J. (2023). Nikoh-oila munosabatlari Shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy Jurnalı, 3(3), 473-477.